

## **MAHALLADA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHNING AYRIM JIHATLARI XUSUSIDA**

**Fayzulla Tolipov**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, tar.f.d.

**Ulug'bek Qo'yliov**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti.

**Annotatsiya:** maqolada O'zbekiston mahallalarida yashayotgan barcha millatlar o'rtasida tinchlik, osoyishtalik, barqarorlikni saqlash, millatlararo totuvlikni ta'minlashning ayrim jihatlari haqida so'z yuritilgan. Unda mamlakatda yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millatga mansub kishilar o'rtasida o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikni qaror toptirish va mustahkamlashda davlatning o'ziga xos ichki va tashqi siyosatining muhim jihatlari bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** mahalla, millat, totuvlik, O'zbekiston, aholi, xalq, siyosat, davlat, osoyishtalik, barqarorlik, tinchlik, Milliy markaz, mentalitet.

## **О НЕКОТОРЫХ АСПЕКТАХ ОБЕСПЕЧЕНИЯ МЕЖНАЦИОНАЛЬНОГО СОГЛАСИЯ В МАХАЛЛЯХ**

**Аннотация:** в статье говорится о некоторых аспектах обеспечения мира, спокойствия, стабильности и межэтнического согласия среди всех наций проживающих в махаллях Узбекистана. В нем описаны важные аспекты внутренней и внешней политики государства по установлению и укреплению взаимного уважения, дружбы и солидарности между людьми разных национальностей, работающими ради общей цели в стране.

**Ключевые слова:** махалля, нация, согласие, Узбекистан, население, народ, политика, государство, спокойствие, стабильность, мир, Национальный центр, mentalitet.

## **ON SOME ASPEKTS OF ENSURING INTERETHNIK HARMONY IN MAHALLAS**

**Abstrakt:** the artikle talks about some aspekts of ensuring pease, tranquility, stability, interethnik harmony among all nations living in the mahallas of Uzbekistan. It deskribes important aspekts of the state's distinktive domestik and foreign polisiees to establish and strengthen mutual respekt, friendship and solidarity between people of different nationalities vorking towards a kommon goal in the kountry.

**Key vords:** neighborhood, nation, soglasie, Uzbekistan, population, nation, politiks, gosudarstvo, spokoystvie, stability, pease, national senter, mentality.

Azaldan o'zbek mahallalarida turli millatga mansub xalqlar birgalikda yashab kelganlar. Bugungi kunda O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan mahallalar haqiqiy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik timosliga aylangan. Shubhasiz ularda turli millat vakillari o'zbeklar bilan yonma yon va aralash yashab keladilar. O'zbekistonda yashayotgan har bir millatning umumiy manfaatlarini bilan birga o'z qadriyatlarini ham bor. Umumiy qadriyat va manfaatlar bir-biriga uyg'un bo'lib, u respublikamiz milliy siyosatida muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston mahallalarida 130 dan ortiq millat vakillari yashamoqda. O'zbekiston kabi ko'pmillatli mamlakatda turli millatlar manfaatlarini uyg'unlashtirish, ular orasida totuvlikni ta'minlash taraqqiyotning hal qiluvchi omillaridan biri hisoblanadi. Zero, millatning istiqboli boshqa xalqlar va mamlakatlarning taraqqiyoti, jahondagi vaziyat va imkoniyatlar bilan bog'liqdir. Dunyoda yashayotgan barcha millatlar orasida tinchlik, osoyishtalik, barqarorlik, hamkorlik, hamjihatlik, teng huquqli munosabatlar bo'lmasa, ular o'zining porloq istiqbolini qura olmaydilar. Shunday sharoitda jamiyatimizda millatlararo totuvlik g'oyasi mazkur masalani to'g'ri hal qilishga yordam beradi. Bu g'oya – bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikning ma'naviy asosidir. Bu g'oya – har bir millat vakilining iste'dodi va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratadi va uni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etadi.

Millatlararo totuvlik -bu muayyan hudud, davlatda turli millat vakillarining hamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishini ifodalaydi. Boshqacha aytganda, millatlararo totuvlik g'oyasi turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqa va davlatlar milliy taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladigan omildir. U dunyoning turli mintaqalarida yoki bir davlat va jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga

mansub kishilar o'rtasida o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikni qaror toptirish va mustahkamlashning ma'naviy asosidir. Bir necha ming yillik tariximiz shundan guvohlik beradiki, olijanoblik va insonparvarlik, millatlararo totuvlikka intilish xalqimizning eng yuksak fazilatlaridan hisoblanadi. Bu boradagi an'analar ugungi mahallalarimizda ajdodlardan-avlodlarga o'tib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 8-moddasida «O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi», deb aniq belgilab qo'yilgan. «O'zbekiston xalqi» tushunchasi mamlakatimizda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlik uchun ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari Konstitutsiyamizda «O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analarini hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi», deb ta'kidlangan. Bu borada 1992 yildayoq milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga ko'maklashish maqsadida O'zbekiston Respublikasi «Baynalminlal madaniyat» markazi tashkil etilgani bunga misol bo'ladi. O'shanda 12 ta milliy-madaniy markaz faoliyatini birlashtirgan bu jamoat tashkiloti bugungi kunda 100 dan ortiq markazlar ishini muvofiqlashtirib turibdi. Mhallalarda istiqomat qilayotgan barcha millatlarining o'z ona tilida o'qishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgani, oliy o'quv yurtlari va maktablarda bunga amal qilinayotgani, ko'plab tillarda gazeta va jurnallar chop etilib, teleko'rsatuv va radioeshittirishlar olib borilayotgani bu boradagi samarali faoliyatning yaqqol dalilidir.

Azaldan o'zbek mahallalarida milliy mentalitetimizga xos bo'lgan bag'rikenglik tamoyili ustuvor bo'lib kelgan. Ya'ni, bag'rikenglik xalqimiz milliy mentalitetining muhim xususiyatlaridan biridir. Har bir davlat, jamiyat bajarayotgan tarixiy vazifani asoslovchi va barcha ijtimoiy sinflar, tabaqalar, millatlar va elatlar, diniy e'tiqodlar vakillarini atrofida birlashtiruvchi, jipslovchi fazilatdir. Ammo o'zbek xalqining bag'rikengligining o'ziga xosligi shundaki, bu nafaqat o'z oilasi va xalqiga nisbatan, balki boshqa xalqlarga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishda ham o'z aksini topadi. Yoki mahalla raislari orasida qozoq, qoraqalpoq, ozarbayjon, turk, turkman, tojik, tatar millatiga mansub oqsoqollar ham faoliyat yuritadi, bu ham haqiqiy totuvlikning yaqqol dalilidir.

Ko'pmillatli O'zbekistonda respublika Baynalminlal Madaniyat Markazi keng ko'lamli ishlarni amalga oshirmoqda. Markaz tomonidan mamlakatimizning barcha hududlarida

o'tkazilayotgan tadbirlar madaniy, etnik munosabatlarni yanada takomillashtirmoqda, O'zbekistonda yashayotgan turli millat va elat vakillari o'rtasida do'stlik va bag'rikenglik munosabatlarini mustahkamlamoqda"-, deb ta'kidlaydi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev Respublika baynalminal madaniyat markazi tashkil etilganligining 25 yilligiga bag'ishlangan uchrashuvdagi nutqida . Bunda mamlakatimizda shakllangan milliy va umubashariy siyosatning muhimligi alohida o'ringa ega. O'zbekiston Respublikasining millatlararo munosabatlarga oid siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilarda o'z ifodasini topgan:

- Millatlar o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro uyg'unlikni siyosiy barqarorlik omili sifatida rivojlantirish;
- Barcha siyosiy jarayonlarda millatlar manfaatlarini aks etishini ta'minlash;
- Milliy o'zlikni anglash jamiyatni demokratlashtirishga undovchi g'oyaviy kuch ekanligini anglash;
- Mamlakatda etnik nizolar va millatchilikka yo'l qo'ymaslik;
- Respublikada milliy totuvlikni va fuqarolik jamiyatini yanada rivojlanitirish;
- Davlat etnik siyosatida shaxs huquqlarining ustuvorligini ta'minlash;
- Siyosiy hokimiyat va jarayonlarda turli millatlar ishtiroki hamda manfaatlar uyg'unligini ta'minlash;
- Millatlar o'rtasida o'zaro hurmat, ishonch, totuvlikni qaror toptirish, demokratik, kuchli fuqarolik jamiyat qurish va siyosiy barqarorlik omili ekanligini anglash.

So'nggi yillarda mahallalarda Respublika Baynalmilal Madaniyat markazi tomonidan "O'zbekiston – umumiy uyimiz" al'bom kitobi, "O'zbekiston – bag'ri keng diyor", "O'zbekiston Konstitutsiyasi – buyuk kelajagimiz kafolati", "Mustaqil O'zbekistonda millatlararo munosabatlar rivoji" kabi to'plamlar chop etildi. Agar yaqin tariximizga murojaat etsak, milliy madaniy markazlarning tashkil etilishi mamlakat ichki siyosatining muhim negizi bo'lganligi ayon bo'ladi.

Buguni kunda respublikamizdagi oliy o'quv yurtlarida turli millatga mansub talabalar tahsil oladi. Ularga 7 tilda ta'lim beriladi, respublikada 8 ta tilda gazeta va jurnallar chop etiladi, 12 tilda teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlar efirga uzatiladi . Barcha umumiy o'rta ta'lim maktablarining 845 tasida rus tilida, 491 ta maktabda qozoq tilida, 259 tasida tojik tilida, 52 tasida turkman tilida, 40 tasida qirg'iz tilida, 7 tasida maktabda koreys tilida ta'lim berish yo'lga qo'yilgan .

Mahallalarda turli millat vakillari o'z milliy bayramlarini nishonlash uchun barcha shart sharoitlar yaratilgan. Bu borada rus xalqining Maslenitsa, bolgar xalqining Martinitsa, arman xalqining Vardavar, polyaklarning Dojinki, koreyslarning Chxusok, tatar va boshqirdlarning Sabantuy, greklarning Oxi singari bayramlari shular jumlasidandir. Shuningdek, ular o'z navbatida o'zbek xalqining madaniyati, san'ati, tili va urf-odatlarini targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratib kelmoqdalar. Milliy madaniy markazlar o'z xalqlarining an'analari, marosimlarini tiklash, ularni O'zbekistonda yashovchi boshqa millat vakillariga yaqindan tanishtirishga intilmoqda. Mamlakatimizda bugungi kunda 140 ta milliy madaniy markazlar va 37 ta do'stlik jamiyatlari faoliyat yuritadi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi tomonidan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasini qabul qilinishi, shuningdek Samarqand shahrida Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumini o'tkazilishi xalqaro hamkorlik aloqalari yangi bosqichga chiqqanligini tasdiqlaydi. Muvaffaqiyatli amalga oshirilgan "Mehr-1" va "Mehr-2" insonparvarlik tadbirlari doirasida Suriyadagi qurolli mojarolar maydonidan va Afg'onistondan 261 nafar fuqaro, asosan ayollar va bolalar O'zbekistonga qaytarib olib kelindi. Ularga zarur tibbiy va moddiy yordamlar ko'rsatildi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizdagi mahallalarda barcha millat va elatlarga yaratib berilgan keng imkoniyatlar, millatlararo munosabatlarni, o'zaro totuvlik va o'zaro hamkorlikni ta'minlashning muhim asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Darhaqiqat, mamlakatda tarixan shakllangan millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Buning yaqqol amaliy isboti sifatida respublikada milliy madaniy markazlar faol ish olib borishi uchun barcha shart sharoitlar yaratildi. Turli millatlar va din vakillari o'z ona tili, dini, madaniyati, urf-odatlarini, an'analarni saqlab qolish va rivojlantirish bilan bir qatorda, ularni keng targ'ib qilishda ishtirok etmoqdalar.

#### **ADABIYOTLAR**

1. Millatlararo do'stlik va hamjihatlik-xalqimiz tinchligi va farovonligining muhim omilidir. Prezident Shavkat Mirziyoev Respublika baynalminal madaniyat markazi tashkil etilganligining 25 yilligiga bag'ishlangan uchrashuvdagi nutqi, Xalq so'zi. 2017 26 yanvar.
2. Musaev O. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar rivoji. Monografiya. Istiqlol nuri, -T 2016.
3. Musaev O. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar rivoji. Monografiya. Istiqlol nuri, -T 2016.
4. Murtazayva R.H. Oila – o'zbek xalqi mentalitetining oliy qadriyati. – Toshkent. «TURON-IQBOL», 2018. – B. 45.